

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZIYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отаяубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning XORIJIIY MODELLARI VA MILLIIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

STATE POLICY AND LEGAL FRAMEWORK FOR THE PROTECTION OF WOMEN FROM HARASSMENT AND VIOLENCE

Nasridinov Yigitali Borataliyevich,

Lecturer of Namangan State University

E-mail: y.nasridinov@mail.ru

Abstract. The article examines the specific features of the social protection of women, the elevation of priority areas of social support to the level of state policy, and the legal mechanisms for their implementation. It also analyzes certain legal mechanisms aimed at improving the effectiveness of working with women who have suffered from violence. Ensuring the implementation of legal acts adopted in the field of protecting the rights and interests of women, safeguarding motherhood and childhood, taking measures to further improve the legal framework, and conducting systematic and comprehensive monitoring of activities for the protection of women's rights remain key priorities of the state social policy.

Keywords: society, women, law, gender, violence, physical violence, sexual violence, economic violence, psychological violence, protection order, civil society.

XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR

Nasridinov Yigitali Borataliyevich,

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari, ularga qaratilgan ijtimoiy himoya ustuvor yo'nalishlarining eng muhim sohalariga e'tibor berilishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi va huquqiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Shuningdek, zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar bilan ishlash samaradorligini oshirishga doir huquqiy mexanizmlarni ayrimlari tadqiq etildi. Xotin-qizlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarining bajarilishini ta'minlash, huquqiy asosni yanada takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rish hamda ular huquqlarini himoya qilish bo'yicha ishlarni muntazam va kompleks monitoringi davlat ijtimoiy siyosatining asosiy kun tartibidagi masala bo'lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: jamiyat, xotin-qizlar, qonun, gender, zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, himoya orderi, fuqarolik jamiyati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N40>

Kirish. Bugungi kunda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish masalasi inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik nafaqat shaxs huquq va erkinliklarini buzadi, balki jamiyat barqarorligi, ma'naviy muhit va oila institutiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish masalasi inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilib, ushbu sohada xalqaro huquqiy standartlar shakllangan. Shu bilan birga, har bir davlat mazkur muammoni hal etishda o'zining milliy

huquqiy tizimi, ijtimoiy sharoiti va madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda huquqiy siyosat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy baza so'nggi yillarda izchil takomillashtirilib, maxsus qonunlar, Prezident farmonlari va davlat dasturlari qabul qilindi. Mazkur hujjatlarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish hamda huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, amalda mavjud huquqiy normalarni qo'llash jarayonida muayyan muammolar saqlanib qolayotgani, tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashishda nazariy-huquqiy yondashuvlarni yanada chuqurlashtirish zaruratini ko'rsatadi. Shu bois mazkur mavzudagi ilmiy tadqiqot xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning nazariy asoslarini ochib berish, amaldagi huquqiy mexanizmlarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi nazariy va huquqiy asoslarni o'rganishda kompleks va tizimli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot huquq nazariyasi, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda inson huquqlarini himoya qilish konsepsiyalariga tayangan holda olib borildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik hamda tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-huquqiy metod orqali xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishga doir huquqiy normalarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida milliy qonunchilik normalari xalqaro huquqiy standartlar bilan solishtirildi.

Formal-yuridik metod amaldagi qonun hujjatlarining mazmuni, huquqiy mohiyati va qo'llanilish xususiyatlarini aniqlashda qo'llanildi. Tizimli tahlil esa xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning o'zaro bog'liqligi va samaradorligini baholash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda mantiqiy tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanilib, ular asosida ilmiy xulosalar chiqarildi hamda amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy baza hamda uni qo'llash amaliyoti kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar tizimli ravishda shakllantirilgan bo'lib, ular inson huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro huquqiy standartlarga mos keladi.

Amalga oshirilgan tahlil xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida maxsus qonunchilik normalari mavjud ekanini, xususan, tazyiq va zo'ravonlik tushunchasining huquqiy jihatdan aniq belgilab qo'yilganini ko'rsatdi. Bu holat huquqni qo'llash amaliyotida zo'ravonlik holatlarini o'z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan huquqiy choralar ko'rish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari huquqiy normalarning mavjudligi ularning amalda to'liq va samarali ijrosini har doim ham ta'minlamasligini ko'rsatdi. Ayrim holatlarda xotin-qizlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi,

shuningdek, jamiyatda mavjud ijtimoiy stereotiplar tazyiq va zo'rvonlik holatlarini yashirishga olib kelayotgani aniqlandi. Bu esa huquqiy himoya mexanizmlarining samaradorligini pasaytiradi.

Tahlil jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ijtimoiy xizmatlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik darajasi muhim omil ekani belgilandi. Ushbu subyektlar faoliyatining uyg'unligi xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi huquqiy siyosatni yanada takomillashtirish uchun nafaqat qonunchilikni rivojlantirish, balki huquqni qo'llash amaliyotini kuchaytirish, profilaktika choralari kengaytirish hamda aholining huquqiy madaniyatini oshirish zarur. Mazkur yondashuv xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Jamiyatini rivojlantirishda xotin-qizlarning rolini oshirish masalalari nazariy va huquqiy jihatdan yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, ularning jamiyat hayoti sohalarida teng mavqeni egallashining amaliy ifodasi va uni amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq etish, ayol fenomenini siyosiy-huquqiy jihatdan tahlil etishni taqozo etmoqda. O'zbekiston davlat mustaqilligining o'tgan yillari mobaynida ayollarning huquq va erkinliklarini, bandligini va oila mustahkamligini ta'minlash, gender tenglikka erishish, onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilish, xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishga yo'naltirilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart"[2]. Ayollarning haqiqiy siyosat sub'yekti bo'lishiga ko'maklashish, tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish, teng huquqlilik hamda teng imkoniyatlar kafolatini ilmiy asoslangan xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda sharqona ma'naviy-axloqiy yondashuvlarga asoslangan holda xotin-qizlar innovatsion tafakkurini shakllantirish va natijada ularning ijtimoiy faolligini oshirishning nazariy va praksilogik jihatlarini tadqiq etish zamonaviy ilm-fan oldida turgan muhim masaladir. Mamlakatda bu boradagi amaliy ishlarga alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz yaxshi tushunamiz – xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta'minlangan jamiyatda, albatta, tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik bo'ladi. Ayol baxtli bo'lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo'ladi"[4]. Prezident tomonidan xotin-qizlarga berilayotgan alohida e'tibor ularning jamiyatimizda yanada faol bo'lishlariga imkoniyatlarni kengaytirishga hizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi 561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida", 2019-yil 2-sentabrdagi 562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi 829-son "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, 2019-yil 2-fevraldagi PF – 5325-sonli "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 7-martdagi PQ – 4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va

tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 5-martdagi PQ – 5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni tadqiqotimiz uchun huquqiy metodologik manba sifatida o'rgandik. Yurtimizda 17 mln. nafardan ziyod xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi 22 ta qonun va 30 dan ortiq huquqiy me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligi mazkur soha davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Muqaddas Qur'oni Karimda "Ayollar uchun (belgilangan huquqlar) o'z me'yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir" deyiladi. Zero, Muhammad Payg'ambar (c.a.v.) ham ayol zotiga hurmat va ehtiromda bo'lib, "Sizlardan eng yaxshilaringiz o'z ahli ayolingiz bilan muomala qilgan kishidir. Men o'z ahli ayollarimga sizlarga bo'lganimdan ham ko'ra xushmuomaladaman" [5] deganlar. Shuningdek, "Niso" surasida xotin-qizlarga nisbatan munosabatlarning xususiyatlari batafsil belgilab berilgan[6].

Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi mavqeyini yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Sohibqiron saltanatidagi ayollarga bo'lgan hurmat-izzat, e'tibor va ishonch diqqatga sazovor. Bu borada Amir Temur: "Ayollarga imkon qadar iliq muomalada bo'lishga harakat qildim"[7] deb bejiz yozmagan.

Bugunga kelib, 7,7 milliard kishidan iborat dunyo aholicining qariyb 51 foizi ayollardan iborat. Jahon xotin-qizlari orasida 14 yoshgacha bo'lganlar – 9,7, 15-19 yoshgacha bo'lganlar – 10, 60 va undan yuqori yoshdagilarning miqdori 7 foizni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkichlarni O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, hozirgi vaqtda 33,5 milliondan ortiq aholimizning qariyb 50 foizi xotin-qizlardir. Ular orasida 14 yoshgacha bo'lganlar – 29, 15-30 yoshgacha bo'lganlar – 28, 31-45 yoshlilar – 21, 46-60 yoshlilar – 15 va 60 dan yuqori yoshdagilarning miqdori 7 foiz[12].

O'zbekistonning doimiy aholisi 2024-yilning 9-dekabr holatiga 37 mln 535 ming 605 kishini tashkil etgan. Bu haqda Statistika agentligi xabar berdi[13]. Shundan: ayollar soni — 18,6 mln kishini tashkil qilmoqda.

Respublikamizdagi ayollarning ijtimoiy maqomini yuksalishi, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini muhofaza yetilishi tufayli mintaqada davlatlari orasida ilk bora BMTning "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi (CYeDAW) Konvensiyasiga qabul qilindi. Bu hol respublikada xotin-qizlarning huquqlariga oid ishlarning jiddiy yaxshilash orqali 2001-yilning 1-yanvarida mazkur xalqaro nufuzli tashkilotning sessiyasida Milliy Hisobot taqdimoti eshitildi. Natijada, ayollar masalasi yuzasidan Milliy harakat dasturi ishlab chiqilib, davlat miqyosida tadbirlar tizimi amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi.

Yurtimizda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy. Siyosiy-madaniy nufuzini yuksaltirish sohasida erishilgan yutuqlarning milliy siyosiy-huquqiy savodxonligi xususida T. Narbayeva "O'zbekiston Qahramoni", "Akademik", "Senator", "Deputat", "Vazir", "Vazir o'rinbosari", "Olima" kabi yangi siyosiy jihatlarini sanab o'tgan. Jumladan, "ularning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, iqtisodiy faoliyatini keng yo'lga qo'yish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari davlatning muhim masalalari qatoridan joy oldi", degan fikrlarida o'z ifodasini topgan[8].

O'zbekiston Respublikasida ayollarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy huquqiy maqomini kafolatlari to'g'risidagi qonunni qabul qilinishi ularning huquqiy turmush tarzini yanada shakllantirishi bilan an'anaviy tafakkuridagi o'zining "ojiza"ligidan to'laqloniligi inson huquqiy tafakkuri hosil qilinadi. Mazkur qonunda "jinslarning notengligini bartaraf yetish, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy yoki asos bo'ladigan tengligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarga erishish uchun davlat organlari tomonidan ko'riladigan huquqiy, tashkiliy hamda institutsiyaviy xususiyatga ega chora-tadbirlar"ni nazarda tutilgan[1]. Mazkur normativ hujjatning maqsadi xotin-qizlarning ijtimoiy maqomini kafolatlariga qaratilgan huquqiy himoya sifatida muhim ahamiyat kasb yetdi.

Zo'ravonlik jamiyatdagi eng yomon illat sifatida insonlar o'rtasidagi tenglikni, erkinlikni yo'qqa chiqaradi. Qaramlik, qullik, boshqalar ustidan hukm yuritish, ularni tahqirlash va kamsitishga olib keladi. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish lozim.

Fuqarolarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni kafolatlovchi qonunlar haqida so'z borganda ulardan biri sifatida 2020-yil 2-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunini aytish mumkin. Mazkur qonun xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, bu sohadagi huquqbuzarliklar turlari va shakllarini aniqlash va ularning javobgarligini ta'minlashga, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilishga, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish maqsadida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini tashkil etish va ularning vazifa va vakolatlari, amalga oshirilishi lozim bo'lgan profilaktik chora-tadbirlarini belgilab berilgan[3]. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning eng ko'p ko'rinishlariga ularni birga yashashga, fohishalik qilishga majburlash, nomusiga tegish, zo'ravonlik qilish va spirtli ichimlik, giyohvandlik moddalar iste'mol qildirish, muntazam xo'rlash va ruhiy ta'sir ko'rsatish hamda boshqa yo'llar bilan o'limga olib borish kabilarni o'z ichiga olgan.

Bugungi kunda xotin-qizlar masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadida bir qator Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar chiqarilgan. Shu bilan birga ularni har xil tazyiqlardan himoya qilish, ularga nisbatan sodir etilgan tazyiqlarga barham berish borasida ham huquqiy asoslar joriy etildi. Birgina 2019-yil 2-sentyabr kuni qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi Qonun asosida xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiq va zo'ravonlikka barham berish maqsadida himoya orderi joriy etilib, unda tazyiq va zo'ravonlik turiga qarab cheklovlar belgilangan, bu cheklovlar:

- 1) Tazyiq o'tkazishni va zo'ravonlik sodir etishini taqiqlash;
- 2) Tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlar bilan aloqasini taqiqlash;
- 3) Tazyiq o'tkazilgan va zo'ravonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganning hamda tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada bo'lishini taqiqlash;

4) Tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlar va yetkazilgan moddiy zararni qoplash, shuningdek ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklash;

5) Tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning qurolini (bundan ov quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderini amal qilish davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek uning qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlashni tashkil etadi.

Shu bilan birga qonunda zo'ravonlik turlari ko'rsatib o'tilgan, bular:

- 1) Jismoniy zo'ravonlik;
- 2) Jinsiy zo'ravonlik;
- 3) Iqtisodiy zo'ravonlik;
- 4) Ruhiy zo'ravonlik turlaridir.

Shuningdek, bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan maishiy zo'ravonlik turi ham kun sayin ko'payib borayotganini uchratishimiz albatta achinarli holat. "Maishiy zo'ravonlik – kundalik turmushda oilaning (nikohning rasmiy ro'yxatga olinganligi, nikohdan ajralish qayd etilgan yoki qayd etilmaganligidan qat'i nazar) bir yoki bir necha a'zolari tomonidan boshqa bir a'zosi yoxud boshqa shaxsning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, or-nomusi, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va qonuniy manfaatlariga qarshi jismoniy, ruhiy, iqtisodiy ta'sir ko'rsatish yoki uni muntazam qo'llash bilan qo'rqitishda ifodalanadigan huquqbuzarlik"[9]. Har bir oilaviy zo'ravonlikning o'ziga yarasha sabablari bor. Ammo ularga olib keluvchi omillar qator umumiylikka ega. O'zbekiston sharoitida oilaviy zo'ravonlikni xarakterlovchi quyidagi asosiy xususiyatlar farqlanadi: zo'ravonning jismonan kuchliligi (ko'pincha erkakning ayolga, ota-onaning farzandga nisbatan zo'ravonligi), zo'ravonlikning bir shaxsga nisbatan ko'pchilik bo'lib sodir etilishi (uchinchi shaxslarning aralashuvi), jabrlangan shaxsning muammo bilan yolg'iz qolishi (huquqiy savodsizlik, ijtimoiy yolg'izlik) va jabrlangan shaxsga huquqiy, psixologik, tibbiy yordam berish mexanizmining zaifligi.

Oilaviy zo'ravonlikka barham berish qiyinligining sabablarini mushohada qilganda, mentalitetga xos xususiyatlarni e'tibordan qochirmaslik lozim. O'zbek oilalarida shaxsiy hayot, oilaviy sir – muqaddas va xalqimiz bu ma'noda ancha konservativ hisoblanadi, ya'ni ko'pchilik holatlarda oiladagi zo'ravonlik oiladan tashqariga chiqmaydi. O'zbek oilalari odatda ko'p a'zolik, ya'ni nafaqat er va xotin, balki ularning qarindoshlari ham munosabatlar zanjirida muhim rol o'ynaydi. Qaynona, qaynota va boshqa qarindoshlarning oiladagi kelinga zulm qilishi, uning so'zsiz bo'ysunishini, hech qanday imtiyozlar talab qilmasligini istashi yoki ota-onaning farzandga, kelinlarning betob qaynona yoki qaynotaga bosim o'tkazishi kabi holatlar kuzatiladi. Afsuski, ana shu vaziyatlar aksar hollarda jabrlanuvchining o'z joniga qasd qilishiga yoki oxirgi, kritik nuqtaga yetib borguncha zulmga bardosh berib, jiddiy tan jarohatlari, ruhiy zarbalar olishiga, sog'lig'ini tiklanmas darajada yo'qotishiga sabab bo'ladi[11].

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik, jamiyatdagi muhim va jadal yechiladigan muammolardan biridir. Muammoning sabablari va yechimlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin. Sabablari – **ijtimoiy va madaniy omillar**(tadbirkorlik, gender tengsizligi, an'anaviy qadriyatlar.), **iqtisodiy vaziyat** (iqtisodiy xavfsizlikning pasayishi, ishsizlik), **ta'lim yetishmovchiligi** (ta'limsizlik, ma'lumot yetishmasligi). O'z navbatida bu keltirilgan sabablari

yechimi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. **Ta'lim** (xotin-qizlarning huquqlari, gender tenglik va ta'limga e'tibor berish), **Qonun ustuvorligi** (zo'ravonlikka qarshi qonunlarni kuchaytirish, huquqni muhofaza qilish organlarini samarali faoliyat yuritish) hamda **ijtimoiy dasturlar** (mahallalarda xotin-qizlarga yordam berish dasturlari, psixologik va yuridik ko'mak).

Zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollarga yordam berish, ularning hayotini yaxshilash va qayta tiklanishlariga yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi usullar va choralarni ko'rib chiqamiz:

1. Psixologik yordam
2. Yuridik yordam
3. Ijtimoiy dasturlar
4. Ma'rifiy dasturlar

Zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollarga yordam berish, ularning hayotini yaxshilash va qayta tiklanishlariga yordam berishda muhimdir. Psixologik, yuridik, ijtimoiy va ma'rifiy yordamlar bilan birga, jamiyatdagi barcha a'zolarining faol ishtirokini ta'minlash lozim.

Respublikamizda xotin-qizlar jinoyatchiligini kamaytirish borasida olib borilgan profilaktik ishlar tufayli respublika bo'yicha xotin-qizlar jinoyatchiligi moc ravishda 2016-yilda 5 foiz, 2017-yilda 11 foizga kamaygan bo'lsa, 2018-yilda umumiy jinoyatchilik 35,7 foizga kamayishiga erishilgan. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda sudlov ishida qo'mita vakillarining ishtirokini ta'minlash tizimi joriy etilib, 2018-yilda 113 nafar jinoyat va 780 nafar huquqbuzarlik sodir etgan xotin-qizlar kafillik asosida jazodan ozod etildi[14].

Tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy va jinoiy choralari belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiqlarga barham berish borasidagi qonuniy hujjatlar takomillashtirilib borilmoqda. 2023-yil 11-aprel kuni e'lon qilingan 829-sonli "Xotin-qizlar va bolalarni huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qonun asosida ham O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda jinoyat kodeksiga xotin-qizlarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun belgilangan ma'muriy va jinoiy jazo choralari belgilandi, masalan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yangi 41¹-moddasi qo'shilib, bu shahvoniy shilqimlik qilganlik uchun javobgarlik masalasi ko'rsatib o'tilgan, shu moddani o'zini olsak hatto oddiy tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflash va imo-ishora qilganlik ham javobgarlik masalasini keltirib chiqarishi xotin-qizlarni qanchalik e'zozlanganligini ko'rsatib turibdi.

Bundan tashqari ushbu qonunning 23-1-moddasi "himoya orderini amal qilish muddatini uzaytirish deb belgilanib, tazyiq va zo'ravonlik yoki ularni sodir etish xavfi bartaraf etilmagan taqdirda, tegishli hududda tazyiq va zo'ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko'ra bir ish kuni ichida himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish bo'yicha materiallar tayyorlanadi hamda himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma rasmiylashtirilgan holda jabrlanuvchining yashash joyidagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga yuboriladi, himoya orderining amal qilish muddati bilan tazyiq va zo'ravonlikka uchragan holatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soat ichida yopiq sud majlisida jabrlanuvchi hamda tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir

etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar hozirligida ko'rib chiqiladi" deb ko'rsatilgan hamda asosli bo'lgan holda xotin-qizlarga nisbatan bir oylik muddat bilan berilgan himoya orderini amal qilish muddatini bir yilga uzaytirish belgilangan. 2024-yil 1-fevral kungi O'zbekiston Respublikasining 902-sonli Qonuni asosida O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 248-moddasiga qo'shimchalar kiritilib, unda Ichki Ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektorlariga tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs tomonidan himoya orderidagi talablarni bajarmaganlik uchun ma'muriy huquqbuzarlikni rasmiylashtirish vakolati berilgan.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 10-may kuni PQ-175-sonli Qarori bilan 1-oktyabrdan shoshilinch qabul bo'limlarida tun-u kun ishlaydigan birlamchi ko'makxonalar tashkil etilib, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash uchun uch sutka muddatga joylashtirilib, shoshilinch birinchi yordam, ruhiy hamda psixoterapevtik yordamlar ko'rsatib kelinmoqda.

Zo'ravonlikning profilaktikasi bo'yicha choratadbirlar

- fuqarolarga zo'ravonlik faktlari haqida yoki o'ziga nisbatan tahdid va tajovuzlar sodir etish holatlari yuzaga kelganda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;
- nizoli holatlar hamda fuqarolarning g'ayri ijtimoiy xulq-atvori va xatti-harakatlariga nisbatan loqayd bo'lmaslik;
- sog'liqni saqlash muassasalariga murojaat qilish va birinchi tibbiy yordam olishni ta'minlash;
- zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarni vaqtincha xavfsiz joyda (reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida yoki ota-onalari yoxud boshqa qarindosh-urug'lar oldida) bo'lishlari uchun ularga qisqa raqamli "1146"-ishonch telefoniga murojaat etish mumkinligi va mavjud muammoga tegishli yechim olishi haqida tushuntirish; X oiladagi nizoli vaziyatlarni ijobiy hal qilish, oila a'zolari o'rtasida buzilgan ijtimoiy munosabatlarni tiklash va boshqa oilaviy masalalar yuzasidan psixologik yoki huquqiy maslahat olish;
- zo'ravonlik sodir etgan shaxsning xulq-atvorini jamoatchilik o'rtasida muhokama qilish, unga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash maqsadida tegishli vakolatli organlarga murojaat qilishni doimiy ravishda o'rgatib borish lozim[10].

Xulosa. Mazkur tadqiqot xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish masalasi inson huquqlarini ta'minlash hamda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ushbu sohada izchil shakllangan normativ-huquqiy baza mavjud bo'lib, u xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari huquqiy normalarning mavjudligi ularning amalda to'liq ijrosini kafolatlamasligini tasdiqladi. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida huquqni qo'llash amaliyotini kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ijtimoiy xizmatlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishning samarali tizimini shakllantirish nafaqat huquqiy bazani takomillashtirish, balki profilaktika choralari kengaytirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish hamda jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan kompleks va izchil chora-tadbirlar xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni № 562 // Xalq so‘zi. – 2019. – 2 sentyabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatning yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi// Xalq so‘zi, 2019 yil 22 iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni (7.01.2008 y.) qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 6-martdagi Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
<https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-khalqaro-khotin-qizlar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>
5. Quroni Karim. – Toshkent: Islom universiteti nashriyoti, 2001. – 36 b.
6. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjimai. –Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2007. – B.77.
7. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T: Sharq, 2003. – 342 b.
8. Narbayeva T. K. Ta‘lim muassasalarida ta‘lim va tarbiya uyg‘unligida xotin-qizlarning o‘rni // Xotin -qizlar ijtimoiy-siyosiy faoligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili mavzusidani konferensiya maqolalarining. to‘plami. –T.: TDIU, 2019. – B. 5.
9. Arifxodjayeva I.X. Ichki ishlar idoralari psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent:2008. – B. 405.
10. Saidova L., Umarova Sh., Abulxasan D., Shotursunova N. Ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikdan ximoya qilish bo‘yicha qo‘llanma [Matn] : qo‘llanma / L.A. Saidova, Sh. Umarova.-Toshkent: Baktria press, 2021. - 26 b.
11. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyati. Mualliflar jamoasi. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka Oshirish instituti
12. XOTIN-QIZLAR IJTIMOY-CIYOY FAOL BO‘LCA. http://namhaqiqat.uz/siyosat/hotin-izlar_izhtimoiy-siyosiy_faol_bulsa.html08.Oktyabrya.2019.
13. <https://daryo.uz/k/2024/12/09/ozbekistonda-doimiy-aholi-soni-375-mlndan-oshdi>
14. Norboyeva T. 113 nafar jinoyat va 780 nafar huquqbuzarlik codir etgan xotin-qizlar jazodan ozod etildi// <https://www.gazeta.uz/uz/2018/12/22/ayollar-jinoyatchilik>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).